«Davlat tilida ish yuritish» amaliy qo’llanmasi lotin yozuvida nashr qilindi

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamenti hamda O’zR FA O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari hamkorlikda “Davlat tilida ish yuritish” kitobi lotin yozuvida 15 ming nusxada nashr etildi.

Kuni kecha Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O’zbek tili va adabiyoti universitetida mazkur qo’llanma taqdimoti o’tkazildi. Unda Davlat tilini rivojlantirish departamenti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti vakillari, kitob mualliflari, tilshunos olimlar, vazirlik va idoralar rahbarlari ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to’g’risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo’yicha maslahatchilari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Amaliy qo’llanmada tashkilot va muassasalarning ish jarayonida ko’p ishlatiladigan hujjatlar hamda ularni tuzish qoidalari to’liq berilgan. Shu bilan birga, qo’llanmada hujjatlar namunalar bilan ko’rsatilib, u ish yuritishga oid lug’atlar bilan to’ldirilgan.

Qo’llanma vazirlik, idoralar va hokimliklarga bepul taqdim etilmoqda.